



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4/2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Умар Худайбердиев Камбағаллик даражаси ва уни қисқартириш йўллари	66
Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова Аҳолининг ўсиши, камбағаллик даражаси ва аҳоли камбағал қатламининг ўзгариш тенденциялари	69
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish yondashuvlari	74
Навруз Абдуллаевич Кудратов Пути эффективного развития услуг электронной коммерции (на примере Самаркандской области)	77
Dilrabo Shirinboyevna Mardonova Samarqand viloyatida mehmonxona xizmatlari integral samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash	80
Farhod Mahmudovich Tirkashyev Xizmatlar ko‘rsatish sohasida intellektual mulk obyektlarini boshqarish xususiyatlari	86
Lazizjon Sharifovich Kuldoshev Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlik salohiyatini baholashga ilmiy yondashuvlar	91
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Аҳмаджон Таниев Туризмнинг атроф-муҳитга таъсири ва барқарор ривожланиш стратегиялари	97
Umida Ziyadullayevna Raximova Turizm Infratuzilmasining hozirgi holati	105
Gulmira Rabbonovna Tursunova Turistik mahsulot iste’molchisini tasniflash	110
Bekzod Sherzodovich Sharipov Inklyuziv turizm destinatsiyalarini shakllantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslari	116
Ulug‘bek Egamberdiyevich Boynazarov Oilaviy mehmon uylari uchun mahalliy va xalqaro me‘yorlar xususiyatlari	121
Dilyor Zafarovich Hakimov O‘zbekistonda etnografik turizmni rivojlantirish samaradorligini oshirish yo‘llari	124
Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов Туризм индустриясини ривожлантиришда минтақавий назариялар ўрни ва роли	130
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilishning innovatsion yechimlari	135
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Азизбек Исомиддин ўғли Асроров Кичик бизнес субъектларини кредитлаш тизимини такомиллаштириш масалалари	139
Pyos Pخomovich Ayubov, Sumbula Kurasheva Iqtisodiy islohotlarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni	145

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС

Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova – SamISI tayanch doktoranti

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy ovqatlanish sohasida innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi, uning o‘ziga xos jihatlari va tasniflanishi, hamda umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xizmatlar sohasi, umumiy ovqatlanish, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsiyalar tasnifi, innovatsion infratuzilma, samaradorlik, innovatsiyani baholash.

Kirish. Xizmat ko‘rsatish sohasi innovatsiyalarni keng joriy etish imkoniyatlarini beruvchi milliy iqtisodiyot tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida innovatsiyalarni joriy etilishi uchun ham kam xarajatli, ham tez natija beruvchi tarmoqlar majmuasidir. Xizmatlar sohasining bir qismi sifatida umumiy ovqatlanish sohasi ham rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun bir xil ahamiyatga ega. Xalqaro ovqatlanish assotsiatsiyasi (ICA) kuzatuv natijalariga ko‘ra butun dunyo bo‘yicha umumiy ovqatlanish xizmatlari 2023-yilda 18foizga o‘shirish kuzatilganligi aniqlangan. Rossiyada umumiy ovqatlanish bozor aylanmasi dinamikasi 2023 yilda 12 454,0 mlrd rublni, AQShda bu ko‘rsatkich 11 130 mlrd rublni, Kanadada-8305 mlrd rublni, Germaniyada-3 490 mlrd rublni tashkil etdi¹.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili Xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari faoliyatida innovatsiyalarning ahamiyati, innovatsion faoliyatning iqtisodiy tabiati hamda ularning samaradorligini oshirish muammolari, savdo va umumiy ovqatlanish sohasi subyektlari samaradorligi masalalari xorijlik, mahalliy olimlar² tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli hamda omilli tahlil, korrelyatsion-regression tahlil hamda iqtisodiy matematik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar Innovatsion faoliyat ilmiy, texnologik hamda tashkiliy tadbirlar bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.


Innovatsion infratuzilma bevosita dastlab kiritiladigan innovatsiyalarni moliyalashtirish bilan bog‘lanadi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish institutlari davlat hamda shaxsiy innovatsion faoliyatni moliyalashtirish institutlariga bo‘linadi. Bunda davlat umumiy jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladigan (aholini umumiy transport bilan ta‘minlash, kommunal to‘lov hamda hisobni yaxshilash va shu kabilar) innovatsion loyihalarni moliyalashtirsa, shaxsiy (yuridik yoki jismoniy shaxslar) o‘z korxonasi uchun yoki shaxsiy foydalanish uchun amalga oshiriladigan innovatsion loyihalarni moliyalashtiradi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalar innovatsiyaning texnologik parametrlariga ko‘ra, innovatsiya mexanizmiga ko‘ra, innovatsiyaning umumiy ovqatlanish korxonasini yagona tizim sifatida qaralishiga ko‘ra, obyektning innovatsion salohiyatiga ko‘ra hamda innovatsiyalar hajmiga ko‘ra tasniflanadi.

Umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda innovatsiyalarning texnologik parametrlariga ko‘ra innovatsiyalar oziq-ovqat bilan bog‘liq (ovqatlanish sohasi


¹ <https://www.catersource.com/event-solutions/2023-results-the-ica-industry-survey>

² Social Innovation in Asia: Trends and Characteristics in China, Korea, India, Japan and Thailand, 2017, pp. 249-274 (26 pages, Braun, Joachim, Afsana, Kaosar, Fresco, Louise O. Science and Innovations for Food Systems Transformation Cham, 2023, 948p., Niranjan D, Chivate, Anuradha N Chivate, Cutting-Edge Developments in Microemulsion Technology: Diverse Applications, Formulation Innovations, and Future Horizons, June, 2024, Водачек Л., Водачкова О. Стратегия управления инновациями на предприятии: Сокр. пер. со словац. / Авт. предисл. В.С. Рапопорт. – М.: Экономика, . – 167с. 2010, Лапин В.Н. Социальные аспекты управления нововведениями // В сб.: Проблемы 2011, Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент: Учеб. пособие для вузов. – СПб: Питер, 2011. – 304с., Рафаэль Омонт. Молекулярная кулинария. Новые сенсорные вкусы в еде. – М.: Центрполиграф, 2019. Пардаев М.К., Инсон салохияти, инсон капитали ва инновация билан боғлиқ категорияларнинг назарий масалалари. Монография. (Хаммуаллифлар: С.А.Бабаназарова, О.Пардаева, О.Пардаев, Ҳ.Н. Очилова, М.О.Мамаюнусова, Қ.Б.Дилманов) –Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024. 204 бет. – 13,0 б.т., Пардаев, М., ва Мухаммедов,



1-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyaning texnologik parametrlariga ko'ra tasniflanishi.

korxonalarida yangi xom ashyo va materiallarni qo'llanishi, ovqatlanish sohasi korxonalarida yangi yarimtayyor mahsulotlarning qo'llanilishi, ovqatlanish sohasi korxonalarida yangi mahsulotlar, xizmat ko'rsatish) hamda jarayonga oid (Ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi metodlari, yangi texnologiyalar hamda yangi tashkiliy strukturalar) innovatsiyalar sifatida tasniflanadi.



2-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni mexanizmiga ko'ra tasniflanishi.


Innovatsiyalar mexanizmiga ko'ra birikkan umumiy bir sohani rivojlantirishga qaratilgan yoki har biri alohida bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan innovatsiyalarga, innovatsiyaning yakunlanganligiga ko'ra tugallangan hamda tugallanmagan innovatsiyalarga hamda natijaviyligiga ko'ra muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz innovatsiyalarga bo'linadi.




3-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni yagona tizim sifatida qaralishiga ko'ra tasniflanishi.

Umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarida innovatsiyaning umumiy ovqatlanish korxonasini yagona tizim sifatida qaralishiga ko'ra kirish qismida(xom ashyo va materiallar, mashina, uskunalar va axborotlarni tanlash), chiqish qismida((mahsulotlar, xizmatlar, texnologiya va ma'lumotlar) hamda korxonada tizimli innovatsiyalar (boshqaruv, ishlab chiqarish, texnologik) kabi innovatsiyalarga bo'linadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion salohiyatiga ko'ra bazisli innovatsiyalar, radikal innovatsiyalar, kombinator innovatsiyalar va modifikatsion innovatsiyalarga bo'linadi.



4-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni salohiyatiga ko'ra tasniflanishi.



5-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni yangilanishiga ko'ra tasniflanishi.

Innovatsiyalar yangilanishiga ko'ra o'rindosh innovatsiyalar, bekor qiluvchi innovatsiyalar, qaytariluvchi innovatsiyalar, ochuvchi innovatsiyalar hamda retro innovatsiyalarga bo'linadi.

Xodimlarning xavfsizlik darajasini yaxshilanishi xizmat ko'rsatish korxonalarida hayot faoliyati bilan bog'liq yomon holatlarni vujudga kelishini kamayishiga, xizmat ko'rsatish jarayonini uzluksiz davom etishiga hamda xodimlarga hayot faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha kompensatsiyalar to'lanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar: Umumiy ovqatlanish korxonalarida faoliyati aholining turmush darajasi, urf-odatlar, qadriyatlar, marosimlari kabi bir qator ijtimoiy falsafiy tushunchalar bilan uyg'unlik kasb etsa, ulardagi innovatsion faoliyat mamlakat va mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanganligi, aholi daromadlari va xarajatlari tarkibi, bank-moliya tizimining rivojlanganligi, AKTning taraqqiy ekanligi va sohalariga tadbiri kabi iqtisodiy jarayonlarga bog'liq ekanligi ma'lum. Maqola ovqatlanish xizmatlari bozoridagi innovatsiyalarning rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi keng tajribasi o'rganilgan va ushbu tajribalardan mintaqadagi ovqatlanish korxonalarida amaliyotida qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi hamda umumiy ovqatlanish korxonalarining faoliyatini tashkiliy mexanizmlari o'rganilishi natijasida umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining tijorat hamda notijorat tashkilotlari sifatida guruhlangan tashkiliy klassifikatsiyasi ishlab chiqildi.

<p>Н.Абдукадилова</p> <p>Подходы к развитию инноваций в деятельности предприятий общественного питания</p> <p>Аннотация. В данной статье освещено постоянное развитие инновационного процесса в сфере общественного питания, его особенности и классификация, а также преимущества внедрения инноваций на предприятиях общественного питания.</p> <p>Ключевые слова: сфера услуг, общественное питание, инновации, инновационная деятельность, классификация инноваций, инновационная инфраструктура, эффективность, оценка инноваций.</p>	<p>N.Abdukadirova</p> <p>Approaches to developing innovations in the activities of public catering enterprises</p> <p>Abstract. This article highlights the continuous development of the innovation process in the catering industry, its specific aspects and classification, and the advantages of introducing innovations in catering enterprises.</p> <p>Keywords: service sector, public catering, innovation, innovative activity, classification of innovations, innovative infrastructure, efficiency, innovation assessment.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.